



Kreativ Tafakkurni Shakllantirishda Sharq Mutafakkirlarining Qarashlari

Rustamova Manzura Ne'matjanovna

Namdu psixologiya faoliyat turlari yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Kreativlik insonni fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirgan holda ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining oliy boshqaruvchisi vazifasini bajaradi va uni ezgu amallar tomon yo'naltiradi. Bunday ijodkor inson hamisha borliq bilan uyg'un holda xarakat qiladi. Insonni insoniyligini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy fazilatlardan biri hisoblangan "kreativ qobiliyat" va "kreativ tafakkur" tushunchalari insonni yuksak ijodiy imkon sohibi ekanligiga dalolat qilishi bilan birga, ayni paytda shaxs mustaqilligini ifodalovchi eng muhim belgilardan biridir.

Kalit so'zlar: tafakkur, rivojlanishi dinamikasi, kreativ tafakkur, eksperimental tatqiq etilish, rivojlanish darajasi, inson tafakkuri xaqidagi qarashlar.

KIRISH

Mustaqillik tufayli Amir Temur tuzuklari, Al Buxoriy xadislari, At termiziy Naqshbandiylarning adabiy durdonalari, Axmad Yassaviyning xikmatlaridan yoshlarni baxramand etish sharafiga muyassar bo'ldik. Shuningdek Alisher Navoiy, ai-Xorazmiy, Durbek, Atoiy, Lutfiy, Bobur, Ibn Sino, Forobiy kabi biyuk allomalarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari kengroq talqin etila boshlandi. "O'z tarixini bilmaganni kelajagi bo'lmaydi" Prezidentning ushbu fikrlari bizning tadqiqotimizga xam aloqador dep xisoblab, quyida buyuk sharq allomalarining, mutafakkirlarning fikrlarini keltirib o'tishni maqsadga muvofiq dep topdik.

Mashhur Yunon faylasufi Arastudan keyin sharqda o'z bilim fikir doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutaffakkir muallimmusoniy ikkinchi muallim dep aytadilar. Forobiy ta'lim-tarbiyani uzviy bog'liqda olib boorish, ta'limni ham tarbiyani ham inson kamolotida o'z o'rni borligini aloxida ta'kidlaydi. Forobiyni fikricha maqsqdga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy ham kamolotga etkazib, tabiat va jamiyat qonun qoidalarini anglab, hayotiy qonun qoidalarini tanlab oladigan va jamiyatda boshalar bilan birga to'g'ri munosabatda bo'ladigan shaxs bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Beruniy inson kamolotida ijodiy tafakkur va mehnat tarbiyasi to'g'risida muhim fikr bayon etadi. U har bir mehnat turiga qarab turlarga ajratadi. Forobiy har bir mehnat egasining mehnatiga qarab turlarga ajratadi. Og'ir mexnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, aqliy mehnat, fan soxiblari mexnatini keltiradi.

O'zbek shoiri va jamoat arbobi Alisher Navoy o'zi tashkil etgan "Ihlosiya" madrasasida ilm olayotgan o'quvchilarga bilim berishda ularning aqliy faoliyatlarini bilishga qiziqishlarini tarbiyalashga asosiy e'tibor berdi.

O'zbek pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning pedagogic qarashlarida ham ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini oshirib, aqliy faoliyatlarini rivojlantirish masalasi kata o'rin egallaydi. Shu bilan birga ta'lim jarayonida xalq og'izaki ijodi



namunalaridan unumli va maqsadli foydalanish talablari umuminsoniy va milliy qadriyatlarini, Kreativlik insonni fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirgan holda ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining oliy boshqaruvchisi vazifasini bajaradi va uni ezgu amallar tomon yo'naltiradi. Bunday ijodkor inson hamisha borliq bilan uyg'un holda xarakat qiladi. Insonni insoniyligini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy fazilatlaridan biri hisoblangan "kreativ qobiliyat" va "kreativ tafakkur" tushunchalari insonni yuksak ijodiy imkon sohibi ekanligiga dalolat qilishi bilan birga, ayni paytda shaxs mustaqilligini ifodalovchi eng muhim belgilardan biridir. Kreativ tafakkur tushunchasi tarixiy manbalarda turli xil ma'no va qarashlarni anglatib kelgan. Bu tushuncha ikki xil xususiyatga ega bo'lgan so'zlar birikmasidan iborat bo'lib, o'zida sifatiylik va miqdoriylikni mujassam etadi. "Kreativlik" uning sifatini bildirsa, "tafakkur" esa fundamental xususiyatini aks ettiradi. Shuningdek, kreativlik keng ma'noda kishining voqea va hodisalarning o'ziga xos mohiyatini ijodiy anglashga asoslangan faoliyat hisoblanadi, kreativ tafakkur esa insonning ijodiy tafakkurini nazarda tutadi. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ta'riflarda ham ikki tushuncha bir-biridan sifat va miqdor jihatidan farqlanadi.

Qadimda yunon faylasuflari bu masala yuzasidan turli xil qarashlarni o'rta tashlaganlar. Suqrot kreativlikni ijodiy tafakkurning o'rtacha holati inson amaliy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ichki qoidalarni yaratish borasidagi qobiliyati deb tushunadi. Suqrotning shogirdi Aflotunning fikriga ko'ra, kreativlik insonning turli tushunchalar yaratishga qaratilgan mushohada yuritish qobiliyati bo'lsa, kreativ tafakkur esa, uni kundalik amaliy faoliyatga tadbqiq etish uchun zarur bo'ladi. Umuman olganda, antik falsafiy tafakkur kreativlik mazmuniga ikki xil mavqedan turib yondoshadilar: 1) kreativlikni aynan kosmoontologik tushuncha ekanligi; 2) individual xususiyatga ega bo'lgan biosotsial tushuncha sifatida e'tirof etadilar. Kosmoontologik mazmunga ega bo'lgan "kreativlik" asosan, Platon va Arastu asarlarida olamiy yohud dunyoviy ijodiy aql mahsuli ko'rinishida sinkritek holda uchraydi, lekin bundan yunon mutafakkirlari kreativlikning individual xususiyatlarini inkor etadi degan fikr kelib chiqmaydi. Biosotsial xususiyatga ega bo'lgan kreativlik tarafdorlari asosan kreativ tafakkurni shakllanishini avtomatik jarayon sifatida tabiat va jamiyat xodisalarining inson bioorganizmidagi in'ikosi deb tushunadilar.

Qadimgi Yunon falsafasida kreativlik ijod manbai emas, balki ijodning o'zi, ya'ni ijodiy fenomendir. Arastu (er. avv. 384-322 y.) o'z qarashlarida "kreativlik" va "kreativ tafakkur" tushunchalarini ishlatib, bu ikki termini bir-biridan ajratishga ham harakat qilgan. Uning fikriga ko'ra, "kreativlik"- ijodiy imkoniyatdan ijodiy voqelikka o'tish jarayoni bo'lsa, "kreativ tafakkur" mazkur jarayonning pirovard natijasidir. Biroq ajablanarli joyi shundaki, mutafakkirning keyingi mulohaza va qarashlarida ushbu xulosa rivojlanmay qolgan, buning ustiga har ikkala tushuncha aynan bir-biriga o'xshash, to'ldiruvchi mazmunda ishlatilgan. Arastu "Ijod o'z-o'zini anglashdagi determinallashtirgan faoliyat bo'lib, u bilimning yangidan-yangi sifat ko'rsatkichlarini yuzaga keltiradi" [1], deb tushuntirgan. Kreativlik va aql (intellekt)ni ajratib talqin qilish

Suqrot dan boshlab, Aflotun, Arastu va keyinchalik Kant, Gegel' falsafalarida ham alohida ahamiyat kasb etgan. Ijodiy jarayonni Aflotun "ruhlanish" va "ilohiy kuch" atamallari orqali asoslashga intiladi. Uning fikricha "Shoir san'ati va bilimi bilan ijod qilmay, balki ilohiy quvvatdan ijod qiladi" [2]. "Kreativlik" va "kreativ tafakkur" masalasida yunon faylasuflari singari musulmon olim-mutafakkirlari ham o'ziga xos maktab yaratganlar. Shu ma'noda diniy-falsafiy ta'limotlar mutakallimlik va mo'taziliylik, sunniylik, shialik va tasavvuf kabilarda insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Sharq faylasuflari Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy va Ibn Rushd ilk o'rta asrlar sharoitidayoq kreativ tafakkur tushunchasining ma'no va mohiyati, mazmun va shaklini aniqlab berishga va u haqda bir butun yaxlit ta'limot yaratishga harakat qildilar. Abu Nasr Forobiy shoirlar misolida: "Endi biz senga aytsak, shoirlar chindan tug'ma qobiliyatli va she'r bitishga



tayyor tabiatli kishilar bo'ladi va ularda tashbeh va tamsilga layoqati yaxshi ishlaydigan bo'ladi.
Bu xil

1. Zubov V.P. Aristotel': Chelovek. Nauka. Sud'ba naslediya. Izd.3. - M.:URSS, 2009. - 368 c.

2 Платон. Избранные диалоги. М.: Художественная литература, 1965. С. 161.

shoirlar she'r navining ko'p turida yo bo'lmasa bir turida ijod qilishga layoqatli bo'ladi" [3] – deb badiiy ijodning ahamiyatini ko'rsatgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keying davrda maktablarning faoliyatini ta'lim jarayonini qayta qurishda uning mazmunini yangilash, unga milliy ruh berish, o'zbek haqiqining tarixi, aql-zakovati asosida boyitishga e'tibor qaratilmoqda. Natijada o'quv dasturlari, darsliklar yangilanib o'quvchilar bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirib bormoqda. Shu bilan birga o'quvchilarning dars jarayonida bilishga qiziqishlarini, ularni mehnat qilishga chorlaydigan ta'lim usullari ham qo'llanilmoqda. O'qish jarayonida "o'yin vaziyatlari"ni yaratishga tayanuvchi bilimga oid o'yinlar ham o'quvchilarning aqliy bilimlarini rag'batlantiruvchi qimmatli usullardan biridir.

O'quvchilarni aqliy mehnat faoliyatlarini tashkil qilish jarayonida o'qitishning emotsional qiziqtirish, bilimga oid bahslashuv, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga, bilishga doir o'yinlar o'quv-munozaralari muvofaqqiyatga erishish uchun vaziyatlar yaratish kabi usullardan foydalaniladi. Bu usullarning hammasi og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va boshqa o'qitish metodlariga qo'shimcha rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini aqliy-faoliyatini qo'llab-quvvatlaydiki, dars o'tish usullarini bilib, o'z ishida tatbiq etish o'qituvchilarga alohida kasbiy mahorat kasb etadi, ta'limning sifati va ta'limning sifati va samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu usullarning keng ta'rifi va to'plangan tajribalar hususida ilmiy ishning uchinchi bobida fikr yuritam.

3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. - 122 с

Xullas, kreativ tafakkur tabiat, jamiyat va insonni o'z-o'zini isloh qilishiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi. Kreativ tafakkur birinchi navbatda gneseologik vazifani bajaradi. Ya'ni inson o'zining ijodiy tafakkuri orqali o'zi yashayotgan dunyoni bilishga, voqelikni butunligicha idrok qilishga intiladi. Insonni hissiy a'zolari orqali olingan dunyo to'g'risidagi axborotlarni jamlagan xolda fikr mushohada yuritadi. Bu jarayon inson kreativ tafakkuri gneseologik vazifasini keng ma'noda talqin etish bo'lsa, tor ma'noda esa insonlar o'z ijodiy salohiyati orqali voqelik, predmet yoki xodisa to'g'risida mustahkam bilimga ega bo'lish, tasavvur, idrok, sinchkovlik va aqliy zukkolik asosida mavjud bilimlarga tanqidiy yondashib, kerakli xulosa chiqarish kabilarni o'z ichiga oladi.

Hozirda iste'dodga diniy nuqtai-nazardan yoki tasavvufiy jihatdan yondashishlar ham mavjud bo'lib, bunga muvofiq inson mavjud diniy amallarni bajarish orqali o'z iste'dodini yanada mukammallashtirishi mumkin.

Tasavvufiy nuqtai-nazaridan esa inson o'z nafsini yengish orqali mavjud ichki ruhiyatini sof xolga keltirishi asosida o'z iste'dodini aks ettirishi va uni yanada rivojlantirishi mumkin. Bizning fikrimizcha bunday yondashuvlarni ma'lum bir pozitiv "ijobiy" jihatlarini inobatga olgan holda iste'dodni shakllantirish va uni yanada rivojlantirish xususida fikr yuritish kerak. Ya'ni iste'dod dastlab Olloh tomonidan insonga berilgan katta tortiq bo'lib, undan inson unumli foydalanishi, uni ezgu maqsadlar sari yo'naltirishi lozim bo'ladi. Bunday iste'dod sohiblari esa barcha zamonlarda ham jamiyatning, davlatning bebaho intellektual mulki hisoblangan. Kreativ tafakkur zehn, iste'dod va qobiliyatni ma'lum bir me'yorda namoyon bo'lishining dastlabki uchqunlari yoshlarning iqtidori orqali namoyon aks etadi. Bunday iqtidorli yoshlarni o'z vaqtida ilg'ab olgan holda ularni kasbga to'g'ri yo'naltirish yaxshi samara beradi, albatta. Bu xususida



buyuk Sharq mutafakkiri Imom G‘azzoliy ham o‘zining “Ihyo ulum ad-din” (Din ilmlarini jonlantirish) asarida inson aqlining o‘zigaxosligi xususida fikr yuritib shunday degan edi: “Aql zaruriy ilmlarning bir qismidir. Joiz narsalarni joiz, mahol narsalarni mahol bilish kabi va u yana aslida durust, chunki bu ilmlar mavjuddir. Zohir ham aql deb nomlanadi. Ammo bu g‘arizani inkor etish, faqatgina ana shu ilmlar mavjud deyish fosidlikdir”. Hozirgi davr ilm-fani xulosasi va hisob-kitobiga ko‘ra insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida atigi 300 ga yaqin kishi daxolar sifatida e’tirof etilgan. Jamiyatda bunday toifa insonlarni miqdor va sifatini ko‘paytirish uning buguni va kelajagini yanada nurafshon bo‘lishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zubov V.P. Aristotelʼ: Chelovek. Nauka. Sudʼba naslediya. Izd.3. - M.: URSS, 2009. - 368 c.
2. Platon. Izbrannyye dialogi. M.: Xudojestvennaya literatura, 1965. S. 161.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. - 122 c.
4. Spinoza B. Izbrannyye proizvedeniya. Tom 1. M., 1957g. Str 340.
5. Bergson A. Tvorcheskaya evolyutsiya. M. 1908g. Str 2.
6. Gegelʼ G.V.F. Sochineniya. Tom 3. M., 1956g. Str 15.
7. Kʼerkegor S. Strax i trepet. M., 1953g. Str 150.
8. Gegelʼ G.V.F. Fenomenologiya duxa/ Per.s nem. G.G. Shpeta, Komment. Yu.R. Selivanova. - M.: Akad. Proekt, 2008. - 767 c.
9. Odilboyevich J. H. SHAXS VA UNING TEMPERAMENTIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI MOSLASHISHDA UNING TARKIBIY QISMLARI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 78-84.
10. Одилбоевич Ж. Х. ШАХС ВА УНДАГИ ПСИХОПАТИЯ ХОЛАТЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ //PEDAGOG. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 693-699.
11. Haydarjon J. SHAXS IJTIMOIIY XIMOYASIZLIGINIOGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIIY PSIXOANALITIK MEKANIZMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 9-12.
12. Odilboyevich, J. H. (2023). SHAXSLARARO MULOQOT DAVOMIDA MULOQOTNING VERBAL VA NOVERBAL HARAKATLARDI SHAXNING KOZ QARASHLARI VA YUZ MIMIKASIGA QARAB YOLG ‘ON ALOMATLARINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 15(5), 59-64
13. Odilboyevich, Jurayev Haydarjon. "SHAXS XAYOT DAVOMIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 16.2 (2023): 128-133.
14. Jurayev, H. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA RUHIYATIGA TA’SIRI. NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI PSIXOLOGIYA KAFEDRASI.
15. Jurayev, H. (2021). SHAXS OG’ISHGAN XULQINING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI. “ACADEMIA SCIENCE” ILMIY-TADQIQOTLAR MARKAZI.
16. Jurayev, H. (2021). Z.FREYD VA UNING PSIXOANALITIK TA’LIMOTIDA XIMOYA MEKANIZMLARI. “ACADEMIA SCIENCE”.